

## ОТА-ОНАЛИК HUQUQIDAN MAHRUM QILISH, ОТА-ОНАЛИК HUQUQINI CHEKLASH VA ОТА-ОНАЛИК HUQUQINI TIKLASH

**Sadullayeva Farida Farxod qizi**

Termiz Davlat Universiteti Yuridik

Fakulteti 3- kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ota-onalik huquqidan mahrum qilish, ota-onalik huquqini cheklash, ota-onalik huquqidan mahrum qilish va cheklashning huquqiy oqibatlari, ota-onalik huquqini tiklash masalalari bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ota-onalik huquqidan mahrum qilish, vasiylik, homiylik, voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar, yetim bolalar.

### ЛИШЕНИЕ РОДИТЕЛЬСКИХ ПРАВ, ОГРАНИЧЕНИЕ РОДИТЕЛЬСКИХ ПРАВ И ВОССТАНОВЛЕНИЕ РОДИТЕЛЬСКИХ ПРАВ

**Аннотация:** В данной статье представлена информация по вопросам лишения родительских прав, ограничения родительских прав, правовых последствий лишения и ограничения родительских прав, восстановления родительских прав.

**Ключевые слова:** Лишение родительских прав, опека, попечительство, межведомственные комиссии по делам несовершеннолетних, дети-сироты.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish — oila huquqi sohasi. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksiga ko'ra, quyidagi hollarda ota-ona (yoki ulardan biri) ota-onalik huquqidan mahrum qilinishi mumkin:

- ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan, aliment to'lashdan bo'yin tovlasa;

- uzrsiz sabablarga ko'ra o'z bolasini tug'ruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o'xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa;

- ota-onalik huquqini suiste'mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo'lsa, jumladan, jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta'sir ko'rsatsa;

- muttasil ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka mubtalo bo'lgan bo'lsa;

- o'z bolalarining qayoti yoki sog'lig'iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog'lig'iga qarshi qasddan jinoyat qilgan bo'lsa.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish sud tartibida amalga oshiriladi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlar ota (ona)ning (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning), prokurorning, shuningdek voyaga yetmagan bolalarning huquqlarini himoya qilish majburiyati yuklatilgan organ yoki muassasalarning (vasiylik va homiylik organi, voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha idoralararo komissiyalar, etim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar muassasalari hamda boshqa muassasalarning) da'vosiga binoan ko'riladi.

Sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda bolaning ta'minoti uchun ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onadan (ularning biridan) aliment undirish masalasini hal qiladi.

Oila kodeksining 81-moddasiga asosan, ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-ona qaysi bolaga nisbatan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa, shu bolaga nisbatan bo'lgan qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan, shu jumladan undan ta'minot olish, shuningdek bolali fuqarolar uchun qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqlaridan mahrum bo'ladi.

Bundan tashqari, ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-ona farzandi bilan uchrashish va uning tarbiyasida ishtirok etish kabi ota-onalik huquqlarini amalga oshirish huquqidan ham mahrum bo'ladi.

Sud bolaning manfaatlarini hisobga olgan holda ota-onani ota-onalik huquqidan mahrum qilmay turib, bolani ota-onadan (ularning biridan) olish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin. Bu ota-onalik huquqidan mahrum qilishga nisbatan yengil javobgarlik chorasidir. Bunda sud bolaning manfaatlarini hisobga olib uni otasidan yoki onasidan olib turish qarorini chiqarishi mumkin.

Bolani ota-ona (ulardan biri) bilan qoldirish ota-onaga (ulardan biriga) bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra (ruhiyatning buzilishi yoki boshqa surunkali kasallik, og'ir holatlarni boshdan kechirish va boshqalar) bola uchun xavfli bo'lsa, ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi.

Agar bolani ota-ona (ulardan biri) bilan qoldirish oqibatida ota-onaning xulq-atvori bola uchun xavf tug'dirsa, ota-onani (ulardan birini) ota-onalik huquqidan mahrum qilish uchun esa etarli asoslar aniqlanmagan taqdirda ham ota-onalik huquqini cheklashga yo'l qo'yiladi.

Ota-onalik huquqini cheklash to'g'risidagi ishlarni ko'rishda sud ota-onadan (ularning biridan) bolaning ta'minoti uchun aliment undirish masalasini hal qiladi.

Ota-onalik huquqi cheklangan ota-ona bolani shaxsan tarbiyalash huquqidan, shuningdek bolali fuqarolar uchun qonun hujjatlarida belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqidan mahrum bo'ladi.

Ota-onalik huquqining cheklanishi ota-onani bolaga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Bola turar joyga bo'lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini saqlab qoladi, shuningdek ota-ona va boshqa qarindoshlari bilan tug'ishganlik faktiga asoslangan mulkiy huquqlarini, shu jumladan, meros olish huquqini saqlab qoladi.

Ota-ona ikkalasining ota-onalik huquqi cheklangan taqdirda, bola vasiylik va homiylik organi qaramog'iga olib beriladi.

Ota-onalik huquqi cheklanganda yoki undan mahrum bo'lgandan keyin uni qonuniy tartibda qayta tiklash mumkin. Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-ona (ulardan biri) Oila kodeksining 82-moddasiga muvofiq, o'z xulq-atvorini, turmush tarzini va (yoki) bola tarbiyasiga bo'lgan munosabatini o'zgartirgan hollarda ota-onalik huquqi tiklanishi mumkin.

Ota-onalik huquqini tiklash ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onaning (ulardan birining) da'vosiga binoan sud tartibida amalga oshiriladi. Ota-onalik huquqini tiklash to'g'risidagi ishlar vasiylik va homiylik organining, shuningdek prokurorning ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Ota-onaning (ulardan birining) ota-onalik huquqini tiklash to'g'risidagi da'vosi bilan birga bolani ota-onaga (ulardan biriga) qaytarish to'g'risidagi talabi ham ko'rib chiqilishi mumkin.

Ota-onalik huquqini tiklash ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-onaning (ulardan birining) da'vosiga binoan sud tartibida amalga oshiriladi.

10 yoshga to'lgan bolaga nisbatan ota-onalik huquqining tiklanishiga faqat uning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

Bola farzandlikka olingan va farzandlikka olish bekor qilinmagan bo'lsa, ota-onalik huquqini tiklashga yo'l qo'yilmaydi.

Ota-onalik huquqini tiklash to'g'risidagi da'vo ota-onalik huquqidan mahrum qilingan shaxslar yoki prokuror tomonidan bola kimning qaramog'ida ekanligiga qarab, ota yoki onaning ikkinchisiga yoki vasiyga (homiya) yoki bolalar muassasasiga nisbatan qo'zg'atiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, qonun talablaridan kelib chiqib, ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota-ona (yoki ulardan biri) ota-onalik huquqidan mahrum qilinishiga asos bo'lgan holatlar barham topganligini, o'z xulq-atvori, turmush tarzi va (yoki) bola tarbiyasiga bo'lgan munosabati o'zgartirganligi tasdiqlovchi holatlarni

ko'rsatib, davlat boji to'lagan holda, da'vo ishlarini yuritish tartibida bola kimning qaramog'ida ekanligiga qarab, ota yoki onaning ikkinchisiga yoinki vasiy (homiy)ga nisbatan ular yashab kelayotgan joydagi fuqarolik ishlari bo'yicha sudga murojaat qilishi mumkin.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilingan ota yoki onaning ota-onalik huquqi tiklangan taqdirda ular farzandi bilan uchrashish va farzandining tarbiyasida ishtirok etish kabi ota-onalik huquqlarini amalga oshirish, shuningdek, bolaga nisbatan bo'lgan qarindoshlik faktiga asoslangan barcha huquqlardan, shu jumladan undan ta'minot olish, shuningdek bolali fuqarolar uchun qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va nafaqalar olish huquqiga ega bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi.
2. Ayollarga huquqiy madad / Sh. Soatova, F.Tojiyev.

#### **Foydalanilgan internet saytlari:**

1. <https://lex.uz/acts/>
2. <https://advice.uz/>
3. <https://advice.uz//article>